

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI



O.Sh.Bazarov  
2024-yil

R9' javabga olindi

№ 07/03/024

“ 27 ” iyun 2024-y.

YAYLOV MASHINALARI  
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800 000 –	Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810 000 –	Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	60810400 –	Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash

Qarshi 2024-yil



Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
YAM 1104	2024-2025	6	4
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O'zbek/ rus		4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Yaylov mashinalari	60	60
			Jami yuklama (soat)
			120
2.	<b>I. Fanning mazmuni</b>		
	<p>Qishloq xo'jaligi uchun zamonaviy bilimlarga ega yuqori malakali kadrlar tayyorlashda talabalarga "Yaylov mashinalari" fanini o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Sababi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan chorvachilikni rivojlantirishda yaylovlar mahsulдорini oshirish dolzarb masalalar jumlasiga kiradi. Bu fanni o'rganish davrida talaba Yaylovlarda qo'llaniladigan traktorlar va turli qishloq xo'jalik mashinalari, mashina-traktor agregatlari hamda texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish asoslari to'g'risida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar hosil qiladi. Yaylovlardan olinadigan maxsulot tannarxini kamaytirish uchun, birinchiidan uni yetishtirishga zamin bo'lgan yerning unumdorligiga putur etkazmaydigan, uning resursini tejash imkoniyatini beradigan, ikkinchidan, kamok energiya sarflaydigan texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.</p> <p><b>Fanni maqsadi va vazifalari</b></p> <p><b>Fani o'qitishdan maqsad</b> yaylovlar holatini yaxshilash ishlarida mexanizatsiya vositalarini qo'llash xisobiga ish umumiy va mahsulдорlikni oshirishning asosi bo'lgan traktorlar va qishloq xo'jaligi mashinalarining tuzilishini, ishlash jarayonini, xamda ularning Respublikamiz sharoitiga mos keladigan turklarini tanlashni bo'lajak bakalavrlarga o'rgatishdir.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> yaylovlar sharoitida ishlatiladigan mashinalarining tuzilishi, ishlashi va texnologik sozlashlari, mashinalarni tamlash va ishga tayyorlash, mexanizatsiyalashgan qishloq xo'jalik ishlarini bajarishda texnologik xaritani tuzish, yaylov xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashni o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.</b> "Yaylov mashinalari" fani fizika, matematika, o'simliklar fiziologiyasi, tuproqshunoslik, o'simlikshunoslik, traktor va qishloq xo'jalik mashinalari, agroekologiya fanlari bilan bog'liqligida o'rganiladi.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>1. "Yaylov mashinalari" fanning maqsadi, vazifasi, tarkibiy tuzilishi va mazmuni</b></p> <p>Yaylovlarda ishlab chiqarish jarayonlarni mexanizatsiyalashning ahamiyati va rivojlantirish istiqbollari. Yaylovlar to'g'risida, ularning holatini yaxshilash va</p>		

<p>mahsulдорligini oshirishga oid Prezident va hukumatning qonun va qarorlari. Yaylov mashinalari fanining maqsad va vazifalari, qisqacha mazmuni.</p> <p><b>2. Yaylov, cho'l va adir mintaqalari, ularning umumiy tavsifi va farqlanishi</b></p> <p>O'zbekiston qorako'lichilik hududlari cho'l va adir mintaqasi iqlim ko'rsatkichlari, geografik tavsiflari. Cho'l ekologik tiplarining xususiyatlari.</p> <p><b>3. Yaylov-cho'l o'simliklarining tuproq sharoitlariga qarab taqsimlanishi.</b></p> <p>O'simliklar va tuproqlar orasidagi uzviy bog'liqlik. O'simliklarning guruhlarga ajratilishi. O'zbekistonning ekologik cho'l tiplarining o'simlik dunyosi.</p> <p><b>4. Yaylovlarning hozirgi holati va ularning yaxshilash usullari</b></p> <p>Yaylovlar tabiatning bebaho in'omi. Tabiiy yaylovlar o'simlik qoplamiga ta'sir etuvchi omillar. Yaylovlardan samarali foydalanishning yangi texnologiyasi.</p> <p><b>5. Yaylovlar holatini yaxshilashda (qo'llaniladigan mashina va agregatlar) energetika vositalaridan foydalanish</b></p> <p>Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda energetika vositalaridan foydalanish. Traktor va avtomobillarning qisqacha tarixi. Traktor va avtomobillarning tasnifi. Traktor va avtomobillarning asosiy qismlari, ularning vazifalari.</p> <p><b>6. Yaylovlarda tuproqqa asosiy ishlov berish mashinalari.</b></p> <p>Tuproqning fizik va texnologik xususiyatlari. Tuproqqa ishlov berish usullari. Pluglar va ularga qo'yiladigan agrotexnik talablar. O'sma, tirkama va maxsus pluglar.</p> <p><b>7. Yaylovlarda tuproqqa sayoz ishlov berish mashinalari.</b></p> <p>Tirmalar. Tirma ishiga qo'yiladigan agrotexnik talablar. Tishli tirmalarning tuzilishi va texnologik ish jarayoni. Diskimon tirmalar. Diskimon tirmaning vazifasi, tuzilishi va ish jarayoni. Frezaning vazifasi, tuzilishi va ishlashi. Kultivatorlarning vazifasi, tuzilishi va ishlashi.</p> <p><b>8. Yaylovlarda o'g'it seppish mashinalari.</b></p> <p>O'g'itlar tasnifi. O'g'itlash usullari. Agrotexnik talablar. O'g'it sochish apparatlari. O'g'itlash mashinalarining vazifasi umumiy tuzilishi va texnologik ish jarayoni.</p> <p><b>9. Cho'l o'simliklari urug'ini ekish va ko'chat o'tkazish mashinalari.</b></p> <p>Ekish va ko'chat o'tkazish usullari. Agrotexnik talablar. Seyalkalarning asosiy qismlari. Seyalkalarning tasnifi. Ekish va ko'chat o'tkazish mashinalarining vazifasi tuzilishi va ishlashi.</p> <p><b>10. Yaylovlarda ekin qator oralariga ishlov berish mashinalari.</b></p> <p>Ekin qator oralariga ishlov berishga nisbatan agrotexnika talablari. Ekin qator oralariga ishlov berish kultivator-ozuqlantirgichlarning tuzilishi va ishlashi. Kultivatorlarni har xil ish sxemalariga moslash. Chilpish moslamasining tuzilishi va ishlashi.</p> <p><b>11. Cho'l o'simliklarni zarar-kunandalardan himoyalash mashinalari.</b></p> <p>O'simliklarni himoyalash usullari. Agrotexnik talablar. O'simlik urug'larini dorilagichlar. Purkash qurilmalari. Changlagichlar va aerezol generatori. Gerbtsid purkagichlar. Himoyalash mashinalarining tuzilishi va ish jarayoni.</p>
---



**12. Yaylovlardan ozugabop o'simliklarni yig'ishtirish mashinalari.**  
Yem -yashak yig'ishtirish texnologiyasi. Pichan o'rgichlar. Pichan o'rgich-  
ezgich va pichan o'rgich - maydalagichlar. Ozugabop ekinlarning hosilini  
yig'ishtirishda ishlatiladigan mashinalar.

**13. Ozugabop cho'l o'simliklarining urug'ini yig'ishtirish mashinalari.**  
Ozugabop cho'l o'simliklarining urug'ini yig'ishtirishning ahamiyati. Urug'  
yig'ish mashinalarining tuzilishi, ishlashi va texnik tavsiflari.

**14. Yaylovlarda meliorativ va sug'orish ishlarida qo'llaniladigan mashinalar.**  
Meliorativ inhlarning turlari va ularni bajarishda qo'llaniladigan mashinalar.  
Sug'orish usullari va mashinalari

**15. Yaylovlarda cho'l o'simliklarini eishtirish texnologik kartalarini tuzish.**  
O'simlikshunoslik uchun mashinalar tizimi, ulardan foydalanish. Qishloq  
xo'jalik texnikalaridan foydalanish sharoitlari. Ishlab chiqarish jarayonlarining  
turlari. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda texnologik xartiani roli va uni ishlab  
chiqish.

**II. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

1. Traktorning umumiy tuzilishi va ularning foydalanish ko'rsatkichlarini o'rganish.
2. Tuproqqa asosiy ishlov berish mashinalari va ularni ishga tayyorlash tartibini o'rganish.
3. Tuproqqa yuza ishlov berish mashinalari va ularni ishga tayyorlash tartibini o'rganish.
4. Tuproqqa yoppasiga ishlov berish mashinalari va ularni ishga tayyorlash tartibini o'rganish.
5. Cho'l o'simliklari urug'ini ekish va ko'chat o'lgazish mashinalari.
6. Qator orasiga ishlov berish mashinalari va ularni ishga tayyorlash tartibini o'rganish.
7. Mineral o'g'it solish mashinalari va ularni ishga tayyorlash tartibini o'rganish.
8. O'simliklarni himoya qilish mashinalari va ularni ishga tayyorlash tartibini o'rganish.
9. Yaylovlardan ozugabop o'simliklarni o'rib-yig'ish mashinalari bilan tanishtirish.
10. Ozugabop cho'l o'simliklarining urug'ini yig'ish mashinalari bilan tanishtirish.
11. Cho'l o'simliklari urug'ini tozalash mashinalari bilan tanishtirish.
12. Stasionar dag'al xashak maydalovchi mashinalar bilan tanishtirish.
13. Ozugalarni o'rish-tushirish mashinalarini o'rganish.
14. Yaylov ishlarida qo'llaniladigan transport vositalarini o'rganish.
15. Cho'l o'simliklarni yetishtirish texnologik kartalarini tuzish.

**III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta'lim tashkili etishning shakli va mazmuni.**

**Yaylov mashinalari fani** buyicha talabning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tay'rlanadi, adabietlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan topshiriqlarni bajaradilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni va internet orqali xorijiy texnikalar haqida ma'lumotlar olish ularni o'rganish va xulosalar berishni o'rganishda o'qib referatlar tayorlaydi xamda mavzu bo'yicha savollarga javob berib, reyting tizimi asosida baholanadi.

**Tavsifa etiladigan mustaqil ishlarining mavzulari**

O'zbekistonda va xorijda ishlab chiqarilayotgan traktorlarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va tavsifi.

Tuproqqa ishlov berishda ishlatiladigan xorijiy qishloq xo'jalik texnikalarining tavsifi va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

O'simlik qator oralariga ishlov berishda begona o'tlarni yo'qotishda mexanik va kimyoviy usullarni qo'llash.

Yaylov xo'jaligi ishlab chiqarishi elektrenergetikasi va elektr yuritmalari Qishloq xo'jalik mashinalarining ko'rsatkichlari bo'yicha energetik vositalarini tanlash

Yaylovlarda ishlatiladigan traktor va qishloq xo'jalik mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish tizimini o'rganish

**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**

**“Yaylov mashinalari” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:**

- respublikamizda va chet ellarda qo'llaniladigan asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash uchun qishloq xo'jalik texnikalar komplekslari;
- tuproqqa ishlov berish, o'g'it sepi, ekish va o'lgazish, ekinga ishlov berish, o'simliklarni himoya qilish, ozuqa tayyorlash mashinalarining tuzilishi va ishlashini;
- har xil yaylov o'simliklarining hosilini yig'ib olish mashinalarining tuzilishi va ishlashini;
- chorvachilikni kompleks mexanizatsiyalashni ko'nikmalarga ega bo'lishni kerak;
- mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan va chet ellardan keltirilayotgan traktor va qishloq xo'jalik mashinalarini boshqarish;



4.	<p>- qishloq xo'jalik ishlarini bajarish texnologik xaritasini tuzish; - qishloq xo'jalik mexanizatsiyalash vositalaridan foydalanish, vatanimiz va xorijda ishlab chiqarilayotgan mashinalarni tanlash va ulardan samarali foydalanish, ilmiy tadqiqot ishlarida ishtiroq eta bilish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak.</i></p> <p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <p>Fanni o'qitishda an'anaviy usullar bilan bir vaqtda yangi texnologiyalardan foydalanish samarali bo'ladi. Bu ishda talabaning mustaqil ishini to'g'ri tashkil qilishga intilish lozim. O'qitishning elektron vositalari, internet orqali olinadigan ma'lumotlar, elektron darsliklar, interaktiv usullardan foydalanish, ekspres so'rovlar, texnik vositalarni qo'llash va boshqa usullardan foydalanish orqali amalgoshtiriladi. O'qitish uchun darsliklar, o'quv ko'rsatmalar, ma'ruza matnlari, ish dafitari, plakatlari, uslubiy ko'satmalar va mashinalarning kichik nusxalari va slaydlardan foydalaniladi.</p>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Joriy, oralq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat buyicha yozma ishini va testlar topshirish</p>
6.	<p><b>VIII. Dasturning informatsion-uslubiy ta'mini</b></p> <p>Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:</p> <p>- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan hamda o'qitishning an'anaviy usullaridan;</p> <p>- uyulov sharoitida ishlatiladigan texnika va mashinalar ishchi qismlarning parametrlarini, energiya va resurs tejankorligini aniqlash bo'yicha o'kaziladigan mashg'ulotlarida aqliy xujum, yakkak, kichik guruhlar musobaqalari guruhli fikrlash va h.k.lar kabii pedagogik texnologiyalardan foydalanish;</p> <p>- mashg'ulotlarda o'quv televideniyasi, diaproektor, kompyuter texnikalari, slaydlar, o'quv kino va video filmlardan foydalanish ko'zda tutiladi.</p> <p><b>Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar*</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Шаймарданов Б.П., Ибрагимов Д.А., Арипов А. О. и другие. Сельскохозяйственные машины для улучшения аридных пастбищ. – Т.: ИКТИСОДИЕТ. 2018 й. -109 б.</li> <li>2. Маматов Ф.М., Теміров І.С. Қишлоқ хо'jalік машіналарі.Т.: Voris, 2019 у.-631 б</li> <li>3. Шоумарова М., Абділлаев Т. Қишлоқ хо'jalігі машіналарі. Toshkent, O'qituvchi 2009 у.</li> <li>4. Шоумарова М., Абділлаев Т. Қишлоқ хо'jalігі машіналарі. Toshkent, O'qituvchi 2002 у</li> </ol>

7.	<p>5. A.I.Komilov va boshqalar. Traktor va avtomobillar. 1 va 2 qismlar. Toshkent -To'1qin, 2011.</p> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonda rivojlantirishning beshita ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlari strategiyasi. Toshkent, "Gazeta.uz". 2017.</li> <li>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-martdagi "Qorako'ltchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3603-son qarori</li> <li>3. O'zbekiston Respublikasining "Yaylovlar to'g'risida" (O'RQ-538-sonli) qonuni. 2019-yil 20-may.</li> <li>4. Qorako'ltchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining PQ-4420-sonli qarori. 16.08.2019 yil.</li> <li>5. Y.Oyxo'jayev, X.Qo'shmarov "Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash" Toshkent "Mehnat", 1988.</li> <li>6. Shoimmarova M., Abdillayev T. Qishloq xo'jaligi mashinalari. (internetdagi nusxasi).</li> <li>7. S.Aliqulov va S.Nurmanov - Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashitirish fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. ToshDAU, 2016</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.arri-tech.ru">www.arri-tech.ru</a>;</li> <li>2. <a href="http://www.tdartrromarket.ru">www.tdartrromarket.ru</a>;</li> <li>3. <a href="http://www.raise.ru">www.raise.ru</a>;</li> </ol>
8.	<p>Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p> <p><b>Fan/modul uchun ma'sulalar:</b></p> <p><b>Xamroyev O.J.</b> – "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashitirish va servis" kafedrasi dotsenti</p>
9.	<p><b>Tag'rizchilar:</b></p> <p><b>I.F.Temirov</b> - "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va servis" kafedrasi professori</p> <p><b>O'.N.Abduraxmonov</b> - "Transport vositalari muhandisligi" kafedrasi dotsenti</p> <p>Fanning o'quv dasturi Institut Uslubiy Kengashining 2024-yil "27" 06" dagi "12"-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. O'quv dasturi Institut Ilmiy Kengashi (2024-yil "21" 06" №12-sonli qaror) bilan tasdiqlangan.</p>